

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI**

**XUJAKULOV SIYOVUSH BAXTIYOROVICH**

**HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI:  
GENEZISI, NAZARIYASI VA AMALIYOTI**

**12.00.14 – Huquqbuzarliklar profilaktikasi.  
Jamoat xavfsizligini ta’minlash. Probatsiya faoliyati**

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**

**Content of the abstract of doctoral (DSc) dissertation**

**Xujakulov Siyovush Baxtiyorovich**

Huquqbuzarliklar profilaktikasi:

genezisi, nazariyasi va amaliyoti ..... 3

**Хужакулов Сиёвуш Бахтиёрович**

Профилактика правонарушений:

генезис, теория и практика ..... 35

**Khujakulov Siyovush Baxtiyorovich**

Crime Prevention:

genesis, theory and practice ..... 69

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 74

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI**

**XUJAKULOV SIYOVUSH BAXTIYOROVICH**

**HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI:  
GENEZISI, NAZARIYASI VA AMALIYOTI**

**12.00.14 – Huquqbuzarliklar profilaktikasi.  
Jamoat xavfsizligini ta’minlash. Probatsiya faoliyati**

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.DSc/Yu133 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Akademiya Ilmiy kengashi veb-sahifasi (<https://akadmvd.uz/oz/ads/elon-j-06-04-2022>) va Ziyonet axborot ta'lim portalida (<http://library.ziyonet.uz/uz>) joylashtirilgan.

**Ilmiy konsultant:**

**Rasulev Abdulaziz Karimovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Kabulov Rustam**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Otajonov Abror Anvarovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Abduqodirov Sherzod Yoqubjonovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 16-iyun kuni soat 14:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68. Tel./faks: (+99871) 265-22-52; e-mail: [info@akadmvd.uz](mailto:info@akadmvd.uz)).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (156-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68. Tel.: (+99871) 265-22-52.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 31-may kuni tarqatildi.

(2023-yil 31-may 9-raqamli reestr bayonnomasi).



**A.S. Tursunov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

**Dj.X. Yuldashev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

**M.Z. Ziyodullayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

## KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyodagi vaziyatning tobora murakkablashuvi, geosiyosiy o'yinlarning avj olishi, ma'naviy, mafkuraviy tajovuzlarning kuchayishi, terrorizm, ekstremizm, giyohvandlik, odam savdosi, korrupsiya, behayollik, zo'ravonlik, vahshiylik kabi illatlar salbiy ta'siri ko'lamining kengayishi huquqbuzarliklar profilaktikasi muammolari bo'yicha kompleks ilmiy va amaliy tadqiqotlar o'tkazish, profilaktik ishlarni olib borishning zamonaviy uslubiyotini joriy etish masalasini dolzarblashtiradi. Ushbu dolzarblikni yer yuzida har yili 437 ming kishining qasddan o'ldirilayotganligi<sup>1</sup>, birgina odam savdosidan 3 milliondan ortiq kishi jabrlanayotganligi<sup>2</sup>, korrupsiya natijasida rivojlanayotgan davlatlar o'rtacha 1.26 trillion, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari esa 132 million AQSh dollari miqdorida zarar ko'rayotganligi<sup>3</sup>, har kuni 1 millionga yaqin shaxs zararli odatlari sabab kiberjinoyatchilikdan jabrlanayotgani<sup>4</sup> kabilar bilan ham asoslash mumkin. Shu boisdan, bugun dunyo davlatlari puxta o'ylangan profilaktika huquqbuzarliklarning oqibatlarini bartaraf etishdan 10 barobar ko'p samaraliroq ekanligiga to'laqonli ishonch hosil qilishmoqda. Bu esa, huquqbuzarliklar profilaktikasini ilmiy, uslubiy, strategik va taktik ta'minlash masalasini dolzarblashtiradi hamda dissertatsiya tadqiqotlarini olib borish zarurati mavjudligini ko'rsatadi.

Jahonda taraqqiyot va xavfsizlikka raxna solayotgan xavf-xatar va tahdidlar, avvalo, transmilliy jinoyatlar va yot g'oyalar ta'sirining tobora kuchayib borayotganligi ularga barham berish va o'z vaqtida oldini olish bo'yicha zamonaviy va samarali tizimni yo'lga qo'yish – dunyo mamlakatlarining ilmiy tadqiqot va amaliy faoliyati obyektiga aylangan. Bu borada, huquqbuzarliklar profilaktikasining nazariy asoslarini rivojlantirish, maxsus profilaktika tuzilmalarini shakllantirish, huquqbuzarliklar profilaktikasiga keng jamoatchilikni jalb etish, huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish va ijtimoiy hayotga tatbiq etish, huquqbuzarliklar profilaktikasiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, huquqbuzarliklar profilaktikasini strategik va taktik ta'minlash bilan bog'liq muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini topishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonda jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib, asosiy e'tibor ushbu yo'nalishdagi faoliyatni muvofiqlashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, diniy ekstremizm va terrorizmga, uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarni kuchaytirish, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorlikni tashkil etish va profilaktik tadbirlarning ta'sirchanligini oshirish kabi masalalarga qaratilmoqda. Shu asosda, jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlarni "Xalq manfaatlariga

<sup>1</sup> Уровен преступности в мире // URL: <https://visasam.ru/emigration/vybor/prestupnost-v-mire.html> (murojaat vaqti: 30.10.2022).

<sup>2</sup> Odam savdosi – asr muammosi // URL: <http://muslim.uz/index./php/maqolalar/item1767-odam-savdosi-asr-muammosi/> (murojaat vaqti: 30.10.2022).

<sup>3</sup> Corruption costs developing countries \$1.26 trillion every year - yet half of EMEA think it's acceptable // <https://www.weforum.org/agenda/2019/12/corruption-global-problem-statistics-cost/> (murojaat vaqti: 30.10.2022).

<sup>4</sup> Уровен преступности в мире // URL: <https://visasam.ru/emigration/vybor/prestupnost-v-mire.html> (murojaat vaqti: 30.10.2022).

xizmat qilish” tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yildi<sup>5</sup>. Natijada, O‘zbekiston – London Iqtisodiyot va tinchlik institutining Global Terrorism Index 2017 reytingiga ko‘ra, terror xavfi eng past mamlakatlar qatoridan o‘rin olgan bo‘lsa<sup>6</sup>, 2020-yilda “Gallup” xalqaro ijtimoiy so‘rov tashkiloti tomonidan chop etilgan “Global Law and Order” hisoboti bo‘yicha huquqni muhofaza qilish idoralari aholi ishonchini qozongan xavfsiz mamlakat sifatida e‘tirof etildi<sup>7</sup>.

Shu bilan birga, 2022–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimini rivojlantirish Strategiyasida<sup>8</sup> sodir etilgan jinoyatlarning asl omillarini aniqlash va bartaraf etishda huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning vakolat doirasini aniq belgilash borasidagi ustuvor vazifalarning belgilanganligi huquqbuzarliklar profilaktikasini nazariy, uslubiy, huquqiy va tashkiliy ta‘minlashni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Qolaversa, hozirda huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid aksariyat tushunchalarning mazmun-mohiyati yuzasidan yagona to‘xtamga kelinmaganligi, bu borada nazariy asoslarning yetarlicha shakllanmaganligi, faoliyatni strategik va taktik ta‘minlashda muammolar hamda sohaga doir qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiyalash bo‘yicha ehtiyojning mavjudligi, faoliyatga zamonaviy axborot texnologiyalarni tatbiq etish taqozo etilayotganligi kabi omillar ushbu mavzuni o‘rganish zarurligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi (2014), “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi (2010), “Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma‘muriy nazorat to‘g‘risida”gi (2019) qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2017) qarori, “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2021) va “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2021) farmonlari va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

---

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-27-son Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/5749291> (murojaat vaqti: 31.10.2022).

<sup>6</sup> O‘zbekiston terror xavfi eng past mamlakatlar ro‘yxatidan joy oldi // <https://sputniknews-uz.com> (murojaat vaqti: 15.12.2022).

<sup>7</sup> Ichki ishlar tizimidagi islohotlar O‘zbekiston huquq-tartibot idoralari bo‘lgan ishonchni yaxshiladi // [https://central.asia-news.com/uz-Cyrl/articles/cnmi\\_ca/features/2019/11/19/feature-01](https://central.asia-news.com/uz-Cyrl/articles/cnmi_ca/features/2019/11/19/feature-01) (murojaat vaqti: 29.07.2022).

<sup>8</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6012-son farmoni // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 23.06.2020 y., 06/20/6012/0953-son (murojaat vaqti: 31.10.2022).

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi**<sup>9</sup>. Ayrim turdagi huquqbuzarliklar profilaktikasi, muayyan toifadagi shaxslar o'rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi, shuningdek profilaktik chora-tadbirlar, xususan, dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish kabi ilmiy-nazariy asoslarini yanada rivojlantirish, tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga oid ilmiy (fundamental) tadqiqotlar dunyoning yetakchi universitetlari va tadqiqot markazlari, jumladan Michigan shtati universiteti, Adliya milliy instituti, Texas politsiya departamenti (AQSh), Jinoyatchilik va odil sudlovni ilmiy tadqiq etish markazi, Jinoyatchilik va qonunchilik siyosiy tadqiqot instituti (ICPR) (Buyuk Britaniya), Maks Plank nomidagi jinoyatchilik, xavfsizlik va huquqni o'rganish instituti (GFR), Jinoyatchilikka qarshi kurashish Milliy markazi, Kanada shaharlarning tadqiqot instituti (Kanada), Milliy politsiya ilmiy-tadqiqot instituti (Yaponiya), Xavfsizlik va kriminalistika instituti (Yangi Zelandiya), Kriminologiya instituti (Avstraliya), O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti va O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida olib borilmoqda.

Jahonda Keng jamoatchilik bilan hamkorlikda jinoyatchilikdan xoli, xavfsizlik yuqori darajada ta'minlangan maktab muhitini yaratish asoslantirilgan (Davlat siyosati va ijtimoiy tadqiqotlar instituti, Michigan shtati universiteti, AQSh), huquqbuzarliklar profilaktikasi strategiyasining o'ziga xos xususiyatlari, turlarini tadqiq qilish va baholash, an'anaviy jinoyatchilikdan tortib rivojlanib borayotgan jinoyat turlarining oldini olishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqish zarurati asoslantirilgan (Adliya milliy instituti, AQSh), jinoyatchilik sababi va uning oldini olish choralari ishlab chiqishga doir ilmiy tadqiqotlar o'tkazilishi hamda targ'ibot qilishi, huquqbuzarlik va jinoyatchilikni tashxislash va davolash uchun kuzatuv markazlari va klinikalarining tashkil etilishi, huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish bo'yicha mavjud ilmiy-tadqiqotlarni muvofiqlashtirish va birlashtirish, huquqbuzar va jinoyatchilarni psixologik psixoterapiya bilan davolash usullari ishlab chiqilgan (Jinoyatchilik va odil sudlovni ilmiy tadqiq etish markazi, Buyuk Britaniya), jamiyatning huquqbuzarlikka bo'lgan munosabati va jinoyatning mahalliy jamoalarga ta'sir qilish usullari, huquqbuzarliklarning oldini olishda jamoatchilikni ishtiroki va o'rniga doir ilmiy tadqiqotlar (Jinoyatchilik va qonunchilik siyosiy tadqiqot instituti (ICPR), Buyuk Britaniya), an'anaviy tadqiqotlarga zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, virtual kriminologik tadqiqotlar o'tkazish va natijada huquqbuzarning o'zgaruvchan psixologik portretini yaratgan holda ularning hulq-atvorini o'rganish orqali huquqbuzarliklarni oldini olishning strategik usullarini yaratish isbotlangan (Maks Plank nomidagi jinoyatchilik, xavfsizlik va huquqni o'rganish instituti, GFR), aholi gavjum hududlarda xavf omillarini bartaraf etish orqali jinoyatchilikning oldini olish, samarali va tejamkor usullarini yaratish, huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir samarali dasturlar, strategiya va tashabbuslarni davlat organlari tomonidan qo'llab-quvvatlash va aholiga targ'ibot qilish zarurligi asoslantirilgan (Jinoyatchilikka qarshi kurashish Milliy markazi, Kanada), huquqbuzarliklarning situatsion profilaktikasi va atrof-muhitni loyihalash orqali jinoyatchilikning oldini olish strategiyasining o'ziga xos afzalliklari, vokzal va metro bekatlarida jinoyatchilikning oldini olish

---

<sup>9</sup> Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida yoritilgan: [search.msu.edu/index.php?q=PREVENTION+OF+OFFENSES#gsc.tab=0&gsc.q=PREVENTION%20OF%20OFFENSES&gsc.page=1](http://search.msu.edu/index.php?q=PREVENTION+OF+OFFENSES#gsc.tab=0&gsc.q=PREVENTION%20OF%20OFFENSES&gsc.page=1), [nij.ojp.gov/topics/crime-prevention](http://nij.ojp.gov/topics/crime-prevention), [www.crimeandjustice.org.uk/about/history](http://www.crimeandjustice.org.uk/about/history), [www.icpr.org.uk/about-us](http://www.icpr.org.uk/about-us), [csl.mpg.de/en](http://csl.mpg.de/en), [www.publicsafety.gc.ca/cnt/rsrscs/pblctns/prmsng-mdl-vlm1/index-en.aspx](http://www.publicsafety.gc.ca/cnt/rsrscs/pblctns/prmsng-mdl-vlm1/index-en.aspx), [www.sfu.ca/icurs.html](http://www.sfu.ca/icurs.html), [www.npa.go.jp/nrips/en/about-us/access.html](http://www.npa.go.jp/nrips/en/about-us/access.html), [www.waikato.ac.nz/security-crime-science](http://www.waikato.ac.nz/security-crime-science), [mghti.uz](http://mghti.uz), [akadmvd.uz](http://akadmvd.uz). (murojaat vaqti: 31.10.2022).

strategiyasini baholash, jinoyatchilik dinamikasini kamaytirishga qaratilgan eksperimental guruhlar tashkil qilish, shuningdek huquqbuzarlik va jinoyat sodir etilishini bashorat qiluvchi eksperimentlar ishlab chiqilgan (Kanada shaharlarning tadqiqot instituti, Kanada), jinoyatlarning oldini olish va fosh etish, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-metodlar ishlab chiqishning ahamiyati ochib berilgan (Milliy politsiya ilmiy-tadqiqot instituti, Yaponiya), huquqbuzarliklar profilaktikasi turlarini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan (O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi).

Dunyoda huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish bilan bog'liq muammolarning yechimini topishga qaratilgan quyidagi ustuvor yo'nalishlarda: huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha maxsus dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha minimal standartlarni ishlab chiqish, huquqbuzarliklar profilaktikasining turli modellarini ishlab chiqish, huquqbuzarliklar profilaktikasida xususiy sektorni jalb etish va shaxsiy izquvarlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, shaxs, oila, uy va mol-mulkni jinoiy tajovuzlardan himoya qilish kabilarga oid tadqiqotlar olib borilmoqda.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda Q.R. Abdurasulova, G.T. Abdullaxodjayeov, X.M. Abzalova, G.O'. Ahmedova, Sh.A. Ganiyev, A.G. Zakirova, M.Z. Ziyodullayev, I. Ismailov, O.M. Maxkamov, F.M. Muxiddinov, S.S. Niyozova, J.A. Ne'matov, A.K. Rasulev, N.S. Salayev, F. Taxirov, M.Q. O'razaliyev, I.Y. Fazilov, Sh.R. G'ofurov, V.G. Fayzullayeva, N.T. Ismoilov, J.A. Ibrohimov, G'.S. Qarshiyev, F.X. Qo'chqorova, A.Sh. Murodov, B.U. Tadjixanov, M.K. Uteniyazov, B.A. Umirzakov va boshqalar tomonidan ayrim turdagi huquqbuzarliklar hamda ma'lum toifadagi shaxslar bo'yicha huquqbuzarliklar profilaktikasi bilan bog'liq ba'zi masalalar tadqiq etilgan.

Huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir masalalar (muammolar) Buyuk Britaniyada Richard Wells, John Thompson, John Croft, Hough, Mike va Roberts, J.V. Jacobson, Jessica, Skrine, Oonagh, Kirby, Amy va Hunter, Gillian; huquqbuzarliklarning oldini olishga doir virtual kriminologik tadqiqotlar GFRda Jean-Louis van Gelder, Daniel Nagin, Timothy Barnum tomonidan o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga davlatlarida ayrim turdagi huquqbuzarliklar hamda ma'lum toifadagi shaxslar bo'yicha huquqbuzarliklar profilaktikasi, ba'zi subyektlarning huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati bilan bog'liq mavzularda tadqiqotlar A.G. Lekar, A.F. Granin, A.V. Gotovsev, A.I. Sapojnikov, A.V. Gotovsev, Y.A. Drujkina, N.A. Morozov, S.V. Polubinskaya, S.V. Fedyayev, A.Sh. Yeshchanov, L.V. Pavlova, A.G. Golovkina, V.L. Kvint, Y.O. Alauxanov, D.V. Shablinskaya tomonidan olib borilgan.

Respublikamizda tadqiqot obyekti bevosita huquqbuzarliklar profilaktikasi masalalariga yo'naltirilgan mavzularda N.S. Salayev (Penitensiar tizimning profilaktik funksiyasi samaradorligini oshirish) fan doktori, Q.A. Saitqulov (Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar viktinologik profilaktikasi bo'yicha faoliyatini takomillashtirish), M.J. Eshnazarov (Huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini takomillashtirish (ichki ishlar organlari faoliyati misolida) va X.E. Axmedov (Ma'muriy nazorat ostidagi shaxslarga oid profilaktik chora-tadbirlarni takomillashtirish) falsafa doktori dissertatsiyalarini himoya qilgan<sup>10</sup>.

---

<sup>10</sup> Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismida keltirilgan.

Shu bilan birga, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida sud-huquq tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijalari, amaldagi qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyoti, ayrim xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari inobatga olingan holda, huquqbuzarliklar profilaktikasining genezisi hamda nazariy va amaliy muammolari kompleks tadqiq etilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tashkilot yoki oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi (10-bandi)ga muvofiq, “Huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish” mavzusi doirasida bajarilgan (2021–2022).

**Tadqiqotning maqsadi** huquqbuzarliklar profilaktikasining genezisi, nazariyasi va amaliyoti masalalarini chuqur tahlil qilish, aniqlashtirish hamda uning nazariyasi va amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan konseptual ahamiyatga ega taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

huquqbuzarliklar profilaktikasi genezisi va qadimgi ta‘limotlardagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid yondashuvlarni o‘rganish;

Yangi O‘zbekiston huquqbuzarliklar profilaktikasi evolyutsiyasini tadqiq etish;

“huquqbuzarliklar profilaktikasi” tushunchasi, tuzilishi va tizimini aniqlashtirish;

huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid ilmiy nazariyalarni tahlil qilish, jinoyatlar sabablari nazariyasining bugungi kundagi ahamiyatini ilmiy asoslash va yanada rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

huquqbuzarliklar profilaktikasini fan va ilm sohasi sifatida rivojlantirish yuzasidan ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqish;

ayrim rivojlangan davlatlarning huquqbuzarliklar profilaktikasi amaliyotiga oid ilg‘or tajribalarini o‘rganish, tahlil qilish, umumlashtirish va milliy tizimga tatbiq etish yuzasidan tavsiyalar berish;

MDHga a‘zo ayrim davlatlarning huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir qonunlarini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish va milliy qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash va bartaraf etishning huquqiy va tashkiliy jihatlarini tadqiq etish, mavjud muammolarni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

huquqbuzarliklar profilaktikasiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning bugungi kun holatini o‘rganish, kelgusida yanada jadallashtirish yuzasidan tavsiyalar berish;

huquqbuzarliklar profilaktikasini strategik va taktik ta‘minlash zaruratini ilmiy asoslash hamda xulosa va tavsiyalarni ilgari surish;

huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir qonun hujjatlarini tahlil qilish hamda ularni tizimlashtirish va kodifikatsiyalash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** huquqbuzarliklar profilaktikasining genezisi, nazariyasi va amaliyoti bilan bog‘liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

**Tadqiqot predmeti** huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid milliy konseptual yondashuvlar va ta‘limotlar, shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risidagi milliy hamda ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligi va amaliyotidan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada analiz va sintez, deduksiya va induksiya, tarixiy va tizimli yondashuv, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy va statistik tahlil, anketa

so‘rovlari, ma‘muriy huquqbuzarlik va jinoyat ishlarini o‘rganish, kuzatish kabi tadqiqot usullari qo‘llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

aholi tomonidan hududda sodir etilayotgan huquqbuzarlik holatlari bo‘yicha profilaktika inspektorini zudlik bilan xabardor qilish maqsadida “SOS” mobil ilovasini yaratish va fuqarolarga qo‘shimcha ma‘lumotlarni taqdim etish funksiyalarini joriy qilish zarurati asoslantirilgan;

huquqbuzarliklarning sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish samaradorligini oshirish maqsadida sodir etilgan jinoyatlarni mahallada muhokama qilish jarayonini masofadan turib nazorat qilish elektron modulini joriy qilish va amaliyotga tatbiq etish zarurati asoslantirilgan;

maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari qayd etgan huquqbuzarliklar haqidagi ma‘lumotlarning elektron aloqa tarmog‘i orqali yagona markazlashtirilgan axborot tizimiga kiritilishini nazorat qilish va ta‘minlash vazifasini ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatish lozimligi asoslantirilgan;

odam savdosi sohasidagi jinoyatlar bo‘yicha ma‘lumotlarning yagona axborot bazasiga kiritiladigan axborotlarni odam savdosi bilan shug‘ullanuvchi, odam savdosidan jabrlangan, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxslar, shuningdek odamlardan foydalanish turlari, odam savdosi jinoyatini sodir etish usullari kabi ma‘lumotlar doirasida shakllantirish lozimligi asoslantirilgan;

ichki ishlar organlarining xotin-qizlar masalalari bo‘yicha bo‘linmalari tomonidan g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan, shuningdek huquqbuzarliklar sodir etgan xotin-qizlar haqida ularning ish (o‘qish) joyidagi ish beruvchini (ma‘muriyatni) va yashash joyidagi fuqarolar yig‘inlarini xabardor qilish asoslarini ishlab chiqish hamda huquqiy jihatdan mustahkamlash zarurati asoslantirilgan;

huquqbuzarliklar profilaktikasining barcha subyektlari mas‘uliyatini birdek oshirish uchun ichki ishlar organlari singari boshqa subyektlarning ham huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati bo‘yicha jamoatchilik oldida hisobot berish tizimini joriy qilish zarurati asoslantirilgan;

huquqbuzarliklar profilaktikasi fanining obyekt, predmeti, vazifa va funksiyalari doirasi belgilab berilgan;

mutafakkirlarning huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlari hamda profilaktikasi to‘g‘risidagi g‘oyalari, fikrlari, qarashlari va nuqtai nazarlari, xalq og‘zaki ijodi namunalari, diniy ta‘limotlar, maxsus ilmiy tadqiqotlar, normativ-huquqiy hujjatlar huquqbuzarliklar profilaktikasining fan sifatida shakllanishida (huquqbuzarliklar profilaktikasi genezisini o‘rganishda) asos bo‘lib xizmat qilishi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

“Huquqbuzarliklar profilaktikasining shakl va usullari”, “Huquqbuzarliklarning sabablari va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish” va “Huquqbuzarliklar profilaktikasining obyekt va subyektlari” nomli o‘quv qo‘llanmalar nashr qilingan;

O‘zbekiston Respublikasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi kodeksining konsepsiyasi loyihasi ishlab chiqildi;

Huquqbuzarliklar profilaktikasi fani tizimini umumiy va maxsus qism (bo‘lim)ga ajratish, birinchi qism (bo‘lim)ni “Umumiy qoidalar”ga, ikkinchi bo‘limni “Profilaktik taktika”ga bag‘ishlash, fanning “Profilaktik taktika” qism (bo‘limi)da muayyan

mavzularni o‘z ichiga qamrab olgan boblarni shakllantirish asosida huquqbuzarliklar profilaktikasi fani dasturi loyihasi tayyorlandi;

“O‘zbekiston Respublikasining huquqbuzarliklar profilaktikasi konsepsiyasi” hamda “2024–2028-yillarda O‘zbekiston Respublikasida huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini rivojlantirish strategiyasi”ni ishlab chiqish va ijtimoiy hayotga tatbiq etish zarurligi asoslantirildi;

kriminologiya fani bilimlariga tayanib hamda amaliyot ehtiyojlarini hisobga olgan holda elektron jinoiy-huquqiy statistika yagona axborot tizimini yuritish tartibi asosida rasmiylashtiriladigan “Shakl 1”, “Shakl 2” va “Shakl 3” elektron statistik kartochkalarning yangi zamonaviy shakli ishlab chiqildi;

Huquqbuzarliklar profilaktikasining konstitutsiyaviy asoslarini yaratish hamda huquqiy tartibga solinishini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-371-son (14.05.2014) qonuni hamda Jinoyat-protsessual kodeksi (22.09.1994) normalaridagi bo‘shliq, kamchilik va ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihalari tayyorlandi;

Davlat ta’lim standartlari asosida o‘qitiladigan mutaxassisliklar uchun malaka talablari, namunaviy o‘quv rejalari va fan dasturlarni ishlab chiqishda tayanch, umum-predmet va predmetga oid kompetensiyalarni inobatga olish va shu asosda huquqbuzarliklar profilaktikasining nazariy asoslarini shakllantirish zarurligi asoslantirildi;

“Multipsixometr” apparat-dasturiy psixodiagnostika majmuasidan huquqbuzarliklar profilaktikasida foydalanish taklif etilib, bu borada shaxsning ruhiy holatlarini aniqlash mezonlari ishlab chiqildi;

huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid davlat va hududiy dasturlarni shakllantirish va unda profilaktik chora-tadbirlarni belgilashda jamoatchilik fikrini o‘rganish amaliyotini tizimli yo‘lga qo‘yish zarurati asoslantirildi;

O‘zbekistonda “Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha strategik tahlil va istiqbolni belgilash ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi (yoki instituti)”ni tashkil etish va ushbu tuzilmaga huquqbuzarliklarga oid yagona, markazlashgan, ochiq statistikani yuritish vakolatini berish taklif etildi;

sodir etilgan huquqbuzarliklar bo‘yicha “Huquqbuzarlikning sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar”, “jabrlanuvchilarning viktim xulq-atvori” hamda “huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning kriminal xulq-atvori”ga ko‘ra hisobini yuritish maqsadida “E-Determinant” kompleks axborot-tahliliy tizimini yaratish taklifi ishlab chiqildi;

Huquqbuzarliklar profilaktikasini SMM (Social Media Marketing – “Ijtimoiy tarmoqlarda marketing”) shaklida aholiga yetkazish elektron tizimini ishlab chiqish va joriy etish taklif etildi;

O‘zbekiston Respublikasining “Videokuzatuv to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish taklifi asoslantirildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Ilmiy tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, ilg‘or xorijiy tajribalar, qonunni qo‘llash amaliyoti, rasmiy manbalardan olingan ilmiy-nazariy qarashlar va metodologik yondashuvlar, ichki ishlar organlari mutaxassislari (800 nafar mutaxassis xodimlar (shu jumladan, profilaktika (katta) inspektorlari), 15 nafar IIV Akademiyasi huquqbuzarliklar profilaktikasi va kriminologiya kafedrasi professor-o‘qituvchilari) o‘rtasida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rov, 200ga yaqin jinoyat ishi materiallari (ayblov xulosa, jinoyatning sabab va sharoit-

larini bartaraf etish to'g'risida taqdimnoma), 100ga yaqin ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar (ma'muriy bayonnoma, ma'muriy huquqbuzarliklarga oid yig'ma ish jildlari), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining huquqbuzarlik – jinoyat va adolat statistikasi (2016–2021-yillar bo'yicha) ma'lumotlari tahlillariga, dissertantning Oliy Majlis Senati, Ichki ishlar vazirligi va IIV Akademiyasi tashabbusi bilan tashkil etilgan bir qator ishchi guruhlar tarkibida bevosita ishtirok etib amaliyot organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyati ahvolini o'rganish natijalariga asoslangan bo'lib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Xulosa, taklif hamda tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, undagi xulosa va tavsiyalardan huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat xavfsizligi asoslari, tergov faoliyati va jinoyat-protsessual huquqi fanlarining nazariy asoslarini rivojlantirishda, huquqbuzarliklar profilaktikasining yuridik tavsifini boyitishda, ushbu yo'nalishda yangi ilmiy-tadqiqotlarni olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot ishining nazariy jihatlariga tayanish kelgusida huquqbuzarliklar profilaktikasi bilan bog'liq yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ular natijasida shakllantirilgan taklif va tavsiyalar huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish, huquqni qo'llash amaliyotini rivojlantirish va samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Huquqbuzarliklar profilaktikasi: genezisi, nazariyasi va amaliyoti bo'yicha olib borilgan tadqiqotning ilmiy natijalari asosida:

aholi tomonidan hududda sodir etilayotgan huquqbuzarliklar holatlari bo'yicha profilaktika inspektorini zudlik bilan xabardor qilish maqsadida "SOS" mobil ilovasini yaratish va fuqarolarga qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etish funksiyalarini joriy qilishga doir taklifdan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-oktabrdagi 645-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari tizimiga axborot texnologiyalarini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar Dasturining 80-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi IIV Tashkiliy departamenti Yuridik ta'minlash boshqarmasining 2022-yil 24-yanvardagi 33/183-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi aholining ichki ishlar organlarining hududiy profilaktika inspektorlari bilan tezkor ma'lumot almashinuvi hamda o'z vaqtida sodir etilgan huquqbuzarliklarni fosh va aybdorlarni ushlab tashlash uchun sharoit yaratilishiga xizmat qilgan;

huquqbuzarliklarning sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish samaradorligini oshirish maqsadida sodir etilgan jinoyatlarni mahallada muhokama qilish jarayonini masofadan turib nazorat qilish elektron modulini joriy qilish va amaliyotga tatbiq etishga doir taklifdan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-oktabrdagi 645-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari tizimiga axborot texnologiyalarini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar Dasturining 79-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi IIV Tashkiliy departamenti Yuridik ta'minlash boshqarmasining 2022-yil 24-yanvardagi 33/183-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi sodir etilgan huquqbuzarliklarni mahallada muhokama qilishning ta'sirchan nazoratini olib borish hamda huquqbuzarliklarning sabablari va sodir

etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratgan;

ichki ishlar organlari zimmasiga maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari qayd etgan huquqbuzarliklar haqidagi ma'lumotlarning elektron aloqa tarmog'ini orqali yagona markazlashtirilgan axborot tizimiga kiritilishini nazorat qilish va ta'minlash vazifasini yuklashga doir taklifdan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-maydagi 322-son qarori bilan tasdiqlangan "Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar va ma'muriy huquqbuzarlik yo'li bilan ma'naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar yetkazilgan shaxslarni markazlashtirilgan hisobga olish tartibi to'g'risidagi Nizom"ning 23-modda 4-xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Yuridik ta'minlash boshqarmasining 2020-yil 4-noyabrdagi 12/20-19-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan va undan jabrlangan shaxslarning markazlashtirilgan hisobini yuritish bo'yicha ichki ishlar vazirligining vakolatlarini aniqlashtirishga xizmat qilgan;

odam savdosi sohasidagi jinoyatlar bo'yicha ma'lumotlarning yagona axborot bazasiga kiritiladigan axborotlarni odam savdosi bilan shug'ullanuvchi, odam savdosidan jabrlangan, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxslar, shuningdek odamlardan foydalanish turlari, odam savdosi jinoyatini sodir etish usullari kabi ma'lumotlardan iborat tizimda shakllantirishga doir taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-avgustdagi O'RQ-633-son qonun bilan tasdiqlangan "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida" (yangi tahrirda) gi qonunning 19-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari Qo'mitasining 2021-yil 13-martdagi 06/1-05/1295-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi odam savdosi bilan shug'ullanuvchi, odam savdosidan jabrlangan, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxslar, shuningdek odamlardan foydalanish turlari, odam savdosi jinoyatini sodir etish usullari va boshqalar to'g'risidagi axborotlar tizimini shakllantirishga xizmat qilgan;

amaldagi qonunchilikda ichki ishlar organlarining xotin-qizlar masalalari bo'yicha bo'linmalari tomonidan g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, shuningdek huquqbuzarliklar sodir etgan xotin-qizlar haqida ularning ish (o'qish) joyidagi ish beruvchini (ma'muriyatni) va yashash joyidagi fuqarolar yig'inlarini xabardor qilish asoslarini ishlab chiqish hamda huquqiy jihatdan mustahkamlashga doir takliflardan O'zbekiston Respublikasi IIVning 2019-yil 11-iyuldagi 181-sonli buyrug'ini bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan "Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom"ning 126-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasining IIV Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasining 2019-yil 10-oktabrdagi 265/5-3354-son dalolatnoma). Ushbu taklifning inobatga olinishi ichki ishlar organlarining xotin-qizlar masalalari bo'yicha bo'linmalari tomonidan xotin-qizlar tomonidan huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar to'g'risida tegishli tashkilotlarni xabardor qilish asoslarini qonunchilikda mustahkamlanishiga xizmat qilgan;

huquqbuzarliklar profilaktikasining barcha subyektlari mas'uliyatini birdek oshirish uchun ichki ishlar organlari singari boshqa subyektlarning ham huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati bo'yicha jamoatchilik oldida hisobot berish tizimini joriy qilish zarurligiga doir ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi o'quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etilgan "Huquqbuzarliklar profilaktikasining obyekt

va subyektlari” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356-son buyrug‘iga asosan berilgan 356/7-434-son guvohnoma). Ilmiy tavsiyalarning tatbiq etilishi yuridik oliy ta’lim muassasalari tinglovchi, kursant va talabalari, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda tadqiqotchilar, shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi amaliyotchi xodimlarga huquqbuzarliklar profilaktikasida hisobdorlikning nazariy asoslariga doir bilim hamda ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilgan;

huquqbuzarliklar profilaktikasi fanining obyekt, predmeti, vazifa va funksiyalari doirasini belgilashga doir ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi o‘quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etilgan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019-yil 4-oktabrdagi 892-son buyrug‘iga asosan berilgan 892-125-son guvohnoma). Ilmiy tavsiyalarning tatbiq etilishi yuridik oliy ta’lim muassasalari tinglovchi, kursant va talabalari, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda tadqiqotchilar, shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi amaliyotchi xodimlarga huquqbuzarliklar profilaktikasida hisobdorlikning nazariy asoslariga doir bilim hamda ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilgan;

mutafakkirlarning huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlari hamda profilaktikasi to‘g‘risidagi g‘oyalari, fikrlari, qarashlari va nuqtai nazarlari, xalq og‘zaki ijodi namunalari, diniy ta’limotlar, maxsus ilmiy tadqiqotlar, normativ-huquqiy hujjatlar huquqbuzarliklar profilaktikasining fan sifatida shakllanishida (huquqbuzarliklar profilaktikasi genezisini o‘rganishda) asos bo‘lib xizmat qilishiga doir ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi o‘quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etilgan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019-yil 9-fevraldagi 133-son buyrug‘iga asosan berilgan 133-203-son guvohnoma). Ilmiy tavsiyalarning tatbiq etilishi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari o‘quvchilari, professor-o‘qituvchilar va amaliyot xodimlarining huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir ta’limotlarning shakllanishi va rivojlanishiga doir bilim hamda ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya tadqiqotining asosiy mazmuni va ilmiy natijalari 7 ta xalqaro, 15 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya hamda davra suhbatlarida sinovdan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 40 ta, jumladan 5 ta darslik, 1 ta monografiya, 3 ta o‘quv qo‘llanma, dissertatsiyaning asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 13 ta maqola (shundan 3 tasi xorijda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to‘qqiz paragrafni o‘z ichiga olgan to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, shartli belgilar va atamalar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 260 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti hamda predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi hamda e'lon qilinganligi, dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Huquqbuzarliklar profilaktikasining genezisi va umumiy tavsifi**"ga bag'ishlangan. Unda qadimgi mutafakkirlar ta'limotlarida huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid yondashuvlar, Yangi O'zbekistonda huquqbuzarliklar profilaktikasining evolyutsion rivojlanishi o'rganilgan va huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy tabiati va xususiyatlari tavsiflangan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi "*Huquqbuzarliklar profilaktikasi genezisi va qadimgi ta'limotlarda huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid yondashuvlar*" deb nomlangan bo'lib, dissertant unda profilaktikaning ilk bor qaysi ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo'lganligini, ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarida qanday rivojlanganligini hamda ayni paytda mazmun-mohiyati nimalardan iboratligi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish va ilmiy xulosalar qilish qadimgi mutafakkirlarning asarlarida huquqbuzarliklar hamda ularni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarni bartaraf qilishga qaratilgan turlicha g'oya, fikr, qarash va nuqtai nazarlarni tadqiq etgan.

S.Kapitsa, F.Foks, Y.A. Drujkina, G.K. Kastorskiy, M.Burenkov, M. Valixonovlarning ilmiy qarashlari hamda ayrim diniy manbalarda ilgari surilgan yondashuvlar tahlil qilinib, har qanday dinning, ayniqsa islom dinining mohiyatida huquqbuzarliklar profilaktikasining negizini tashkil etuvchi "ezgulik", "ishonch" yotadi. Yaratuvchining borligiga ishongan inson e'tiqodli, e'tiqodli inson ezgulikka xizmat qiluvchi, yomonliklardan tiyiluvchi, yomonliklardan o'zini tiygan inson esa huquqbuzarlik sodir etuvchi emas, aksincha, uning oldi olinishiga xizmat qiluvchi bo'ladi. Shu boisdan huquqbuzarliklar profilaktikasida dinning ta'sirchanligini inobatga olish zarur, zero, huquqbuzarliklar profilaktikasining bir asosi dinga borib taqaladi, deb xulosa qilingan.

Bu borada Markaziy Osiyo hududida diniy ta'limotlarga asoslangan manba – Zardo'shtiylik dinining asosiy manbai – "Avesto" atroflicha o'rganilgan. Ushbu qadimiy manbada ilgari surilgan durdona fikrlar zahirida yuksak axloq, komil inson qiyofasini aks ettiruvchi axloqiy fazilatlar ifoda etilgani, huquqbuzarliklar profilaktikasining genezisini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etishi ilmiy asoslangan.

Shu bilan birga, Sharq mutafakkirlaridan Aziziddin Nasafiy, Yusuf Xos Hojib, Shayx Muslihiddin Sa'diy, Sa'diy Sheroziy, Nosiriddin Rabg'uziy, Alisher Navoiy, Gulxaniy, Burhoniddin Marg'inoniy, Ismoil al-Buxoriy, Abu Nasr Muhammad al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniylarning asarlariga oid manbalar tahlil qilinib, axloq, ilm, fozillik, komillik, insoniy fazilatlar, axloqiy tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat g'oyalari targ'ibiga asoslangan ushbu asarlarning har biri bo'yicha, ularning huquqbuzarliklar profilaktikasiga aloqadorligi yuzasidan xulosalar qilingan.

Shuningdek, Chor Rossiyasi va sobiq Ittifoq davridagi huquqbuzarliklar profilaktikasi – O‘zbekistonda yashab ijod etgan ma’rifatparvar mutafakkirlar, jadidchilik namoyandalari hamda mustaqillikka qadar ijod qilgan va huquqbuzarliklar profilaktikasi mazmuniga ega asarlar yaratgan o‘zbek adiblaridan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Sadridin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor kabilarning ta’limotlari asosida o‘rganilgan.

Tahlil va o‘rganishlar natijasida mamlakatimizda “Ijtimoiy odob-axloq qoidalari to‘g‘risida”gi kodeksni qabul qilishni dolzarb ijtimoiy zaruriy ehtiyoj ekanligi, chunki ijtimoiy odob-axloq qoidalari mazmun-mohiyati bo‘yicha ham ijtimoiy tushuncha bo‘lib, odatda, ular umuminsoniy, milliy, diniy, mahalliy, oilaviy, kasbiy kabi qadriyatlar tizimida shakllanishi va rivojlanishi, agarda ushbu ijtimoiy hodisa o‘z funksiyasini yetarlicha bajarmasa yoki boshqacha aytganda, keltirilgan qadriyatlar tizimida bo‘shliq paydo bo‘lsa, u holda ushbu bo‘shliqni huquqiy normalar bilan to‘ldirish zarurligi, aks holda odob-axloqning ta’sirchanligi sezilmasdan qolishi ilmiy asoslangan.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi “*O‘zbekistonda huquqbuzarliklar profilaktikasining evolyutsiyasi*” deb nomlangan bo‘lib, unda O‘zbekiston hududida huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid ilk ta’limotlarning vujudga kelishi, nazariy asoslarning shakllanishi va rivojlanishi, huquqbuzarliklar profilaktikasi amaliyotining tizimli yo‘lga qo‘yilganligi hamda ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar va ularning natijalari o‘rganilgan, ilmiy xulosalar qilingan.

O‘rganish jarayonida “Huquqbuzarliklar profilaktikasi” fani predmetini “Kriminologiya” va “Viktimologiya” fanlarining predmetlari bilan muvofiqligini ta’minlash zarurati mavjudligi aniqlangan.

*Dissertantning fikricha, bugunga kelib “huquqbuzarliklar profilaktikasi” quyidagicha shakllanib ulgurgan:*

1) normativ-huquqiy hujjatlar asosida maxsus vakolat berilgan huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari tomonidan amalga oshirilib kelinayotgan – *faoliyat sohasi*;

2) huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir ijtimoiy-huquqiy munosabatlar “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni bilan tartibga solingan – *qonunchilik sohasi*;

3) o‘zining predmeti, maqsadi, vazifalari va tizimiga ega – *fan sohasi*;

4) ilmiy darajalar olish uchun yuridik fanlarning “12.00.14 – Huquqbuzarliklar profilaktikasi. Jamoat xavfsizligini ta’minlash. Probatsiya faoliyati” ixtisosligi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib boriladigan – *ilm sohasi*;

5) O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida malakali mutaxassislar tayyorloviga qaratilgan – “*huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati*” ta’lim yo‘nalishi (*mutaxassisligi*) sifatida.

Huquqbuzarliklar profilaktikasining yuqorida keltirilgan har bir xususiyati bo‘yicha shakllanish va rivojlanish davrlari, amalga oshirilgan chora-tadbirlar va erishilgan natijalar faktik ma’lumotlar bilan asoslantirilgan.

Xususan, O‘zbekistonda huquqbuzarliklar profilaktikasining “faoliyat sohasi” sifatida shakllanishi va rivojlanishi ilmiy tadqiq etilib, jinoyatchilikka qarshi kurash, xususan huquqbuzarliklarning oldini olish sohasida amalga oshirilgan tub islohotlar quyidagi besh bosqichga ajratib o‘rganilgan:

**birinchi bosqich** – (1999–2001-yillar) Toshkent shahrida jamoat tartibini va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yangi konsepsiya joriy qilingan;

**ikkinchi bosqich** – (2001–2004-yillar) Toshkent shahrida amalga oshirilgan islohotlar samarasi natijasida ijobiy tajriba respublika bo'yicha tatbiq etilgan;

**uchinchi bosqich** – (2004–2014-yillar) ichki ishlar organlari tizimi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlash hamda huquqbuzarliklar profilaktikasida mahalla va jamoatchilik tuzilmalari rolini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilgan;

**to'rtinchi bosqich** – (2014–2017-yillar) “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi qonun qabul qilinib, mavjud huquqiy bo'shliq bartaraf etilgan, davlat va jamiyatning huquqbuzarliklar profilaktikasiga nisbatan aniq pozitsiyasi belgilangan;

**beshinchi bosqich** – (2017-yildan hozirgacha bo'lgan davr) huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasi kompleks tahlil qilinib, yig'ilib qolgan mavjud muammolar aniqlangan, huquqbuzarliklarning samarali profilaktikasini amalga oshirish davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa davlat tashkilotlari, shuningdek xo'jalik boshqaruvi organlarining ustuvor vazifasi etib belgilangan. Maqsadli va tizimli ishlar yo'lga qo'yilib, aholi salomatligi bilan birga ularning xavfsizligini ta'minlash masalasi ham davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgan.

Birinchi bobning uchinchi paragrafi “*Huquqbuzarliklar profilaktikasi tushunchasi, strukturasi (tuzilishi) va tizimi*” deb nomlangan bo'lib, unda “huquqbuzarlik”, “profilaktika”, “oldini olish”, “huquqbuzarliklarga qarshi kurashish”, “huquqbuzarliklarning oldini olish” kabi tushunchalarning mazmunini ochib berish orqali “huquqbuzarliklar profilaktikasi” tushunchasining mohiyati yoritib berilgan.

Bu borada MDHga a'zo davlatlarning huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir qonunchiligi va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilib hamda I.E. Velikoselskaya, O.V. Filimonov, A.G. Lekar, A.F. Zelinskiy, Ye. Alauxanov, A.A. Savchenko, N.S. Salayev, M. Usmonaliyev, Y.M. Karaketov, G.A. Avanesov, Z.S. Zaripov, Y.S. Pulatov, Q.R. Abdurasulova kabi olimlar bilan ilmiy munozaraga kirishib, “huquqbuzarliklar profilaktikasi” – bu “faoliyat”, “huquqbuzarliklarning oldini olish” esa ushbu faoliyatdan ko'zlangan “maqsad”, deb xulosaga kelingan. Va ushbu xulosa, milliy qonunchilik hujjatlari bilan asoslab berilgan.

Shu bilan birga, “huquqbuzarliklar profilaktikasi”ning “jamoat xavfsizligi”, “jamoat tartibi” tushunchalari bilan aloqadorligi tadqiq etilgan.

M.Z. Ziyodullayev, A.I. Sapojnikov, A.V. Gotovsev, A.F. Joldasov, Sh. Paxrutdinov, I.R. Alijonov, D.A. Korotchenkov, A.V. Kudelichlarning ilmiy hamda MDHga a'zo davlatlar va milliy qonunchiligimizdagi huquqiy yondashuvlarga asoslanib, “*jamoat xavfsizligi*” – bu ijtimoiy-huquqiy tushuncha, biroq u “*faoliyat*” emas, balki “*himoyalanganlik holati*”dir, deb xulosa qilingan.

Dissertant o'rganilgan ushbu tushunchalarning mazmun-mohiyati ko'p yillardan buyon ilmiy tadqiq etib kelinishiga qaramasdan hanuzgacha yakuniy to'xtamga kelinmaganligini ta'kidlab, “huquqbuzarliklar profilaktikasi”, “huquqbuzarliklarning oldini olish”, “huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish” va “huquqbuzarliklarga qarshi kurashish” tushunchalariga oydinlik kiritish va qonun hujjatlarida ularning ta'riflarini aks ettirish orqali ularning mazmuniga doir bahs-munozaralarga muayyan darajada chek qo'yish mumkin, deb hulosaga kelgan.

Shu o'rinda “huquqbuzarliklar profilaktikasi”ning tuzilishi va tizimi uning belgilaridan farqlanishi ham ilmiy asoslangan hamda ularga xos elementlar shakllantirilgan.

Dissertantning fikricha, huquqbuzarliklar profilaktikasining tuzilishi – bu uning nima uchun mavjudligini oydinlashtirsa, tizim – uning qanday harakatga kelishini tushuntirib beradi.

Tahlillar natijasida quyidagi tushunchalarning ta'riflari ishlab chiqilgan:

*huquqbuzarliklar profilaktikasi* – bu huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlarining huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid davlat siyosatini belgilash, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshirish, unda ishtirok etish hamda ushbu yo'nalishdagi ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan faoliyatdir (*ushbu ta'rif so'rovga jalb etilgan 66 foiz respondentlar tomonidan ma'qullangan*);

*huquqbuzarliklarning oldini olish* – bu huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, jamoat tartibini saqlash, jinoiy tajovuzlar, turli xavf-xatar va tahdidlarni aniqlash va bartaraf etish, huquqbuzar shaxslarni aniqlash va qo'lga olish, shuningdek jazoning muqarrarligini ta'minlashdan ko'zlangan maqsad hamda jamoat xavfsiziligini ta'minlash vositasidir (*ushbu ta'rif so'rovga jalb etilgan 71 foiz respondentlar tomonidan ma'qullangan*);

*huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish* – bu nafaqat jamiyatda huquqbuzarliklarning kelib chiqishini taqozo etuvchi ijtimoiy salbiy omillarni barvaqt aniqlab, ularni bartaraf etish, balki, imkon qadar mazkur ijtimoiy salbiy omillarning jamiyatda bo'lmasligini ta'minlashga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishidir (*ushbu ta'rif so'rovga jalb etilgan 73 foiz respondentlar tomonidan ma'qullangan*);

*huquqbuzarliklarga qarshi kurashish* – bu davlatning huquq-tartibotni ta'minlash va tabiatni muhofaza qilish funksiyasini amalga oshirish hamda sog'lom ijtimoiy muhitni qaror toptirish, milliy suverenitet va hududiy yaxlitlikni himoya qilish, jamoat tartibi, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va odil sudlovni amalga oshirish, huquqbuzarlarga nisbatan javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash, jamiyatda huquqbuzarlik va g'ayriijtimoiy xulq-atvorga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyatdir (*ushbu ta'rif so'rovga jalb etilgan 65 foiz respondentlar tomonidan ma'qullangan*).

Tadqiqot natijasida tadqiq etilgan tushunchalar o'zlari ifodalaydigan voqelikning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari bilan bir-biridan o'zaro farqlanadi, mazkur farqlarni anglab yetmasdan, tushunchalarni noo'rin qo'llash, nafaqat ularning mazmunini tushunishda chalkashliklarni keltirib chiqaradi, balki bu boradagi amaliy faoliyatning aniq manzilga yo'naltirilishi va samaradorligining ta'minlanishiga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi, degan xulosaga kelingan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Huquqbuzarliklar profilaktikasi nazariyasi tahlili”**ga bag'ishlangan. Mazkur bobda huquqbuzarliklar profilaktikasi faniga oid nazariy va metodologik asoslarning bugungi holati hamda huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir ilmiy nazariyalar tahlil qilingan.

Ushbu bobning *“Huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid nazariyalar tahlili”* deb nomlangan birinchi paragrafida jinoyatchilikning sabablarini ilmiy tadqiq etgan quyidagi yo'nalishdagi nazariyalar tahlil qilingan hamda ular asosida ilgari surilgan g'oyalarning huquqbuzarliklar profilaktikasi fani rivojlanishi, amaliyotning samarali tashkil etilishida muhim o'rin tutishi ilmiy asoslangan:

- 1) ijtimoiy yo'nalish nazariyasi;
- 2) ijtimoiy-psixologik yo'nalish nazariyasi;
- 3) psixologik yo'nalish nazariyasi;
- 4) ijtimoiy-biologik yo'nalish nazariyasi.

Dissertant jinoyatchilik sabablarini ong bilan bog'liq bo'lmagan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa, voqea va jarayonlar bilan bog'lab tushuntiruvchi *ijtimoiy yo'nalish nazariyasi* namoyandalarining qarashlari olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida ilmiy asoslanligini va hozirgi kunga qadar o'z ahamiyatini deyarli yo'qotmaganligini faktik ma'lumotlar bilan asoslantirgan.

Xususan, aynan ushbu yondashuvga asoslanib mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurashish siyosati doirasida profilaktik choralar amalga oshirilayotgani va ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinayotgani keltirib o'tilgan.

Biroq dissertant, garchi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 3-moddasida "huquqbuzarliklar profilaktikasi" tushunchasiga berilgan ta'rifda "... profilaktikasining huquqiy, **ijtimoiy**, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi" mazmunidagi izohlar bayon etilgan bo'lsa-da, biroq ijtimoiy chora-tadbirlarning mazmun-mohiyati normativ-huquqiy hujjatlarda ham, ilmiy yoki o'quv adabiyotlarida ham yetarlicha ochib berilmaganligini, huquqbuzarliklar profilaktikasi amaliyotida esa, ijtimoiy chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirishda puxta o'ylangan strategik va taktik yondashuvlar mavjud emasligini, shu boisdan ayni paytda jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosatini faqatgina davlat rahbarining siyosiy irodasi va pozitsiyasi, deb tushunish kerakligini ta'kidlagan.

Shu boisdan jinoyatlarning sabablarini o'rganuvchi ijtimoiy yo'nalish nazariyasini huquqbuzarliklar profilaktikasi nuqtai nazardan tadqiq etish va ilmiy-nazariy asoslarini shakllantirish maqsadga muvofiq. Zero, ushbu nazariy yondashuv jamiyatda huquqbuzarliklar profilaktikasining ta'sirchan ijtimoiy profilaktik chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda ularning qat'iy, prinsipial va maqsadli amalga oshirilishi va natijadorligini ta'minlashga xizmat qiladi, deb to'xtamga kelgan.

Garchi ijtimoiy va *ijtimoiy-psixologik yo'nalish* nazariyalari bir-biriga yaqin va o'xshash bo'lsa-da, biroq ular sabablarning ong bilan bog'liq yoki bog'liq emasligi bilan ajralib turadi. Boshqacha aytganda, ijtimoiy sabablar obyektiv sabab hisoblanishsa, ijtimoiy-psixologik sabablar subyektiv hisoblanadi. Ijtimoiy-psixologik sabablar jamiyat a'zolarining boshqa a'zolariga nisbatan psixologik ta'sir ko'rsatilishida namoyon bo'ladi. Muallif bugun dunyoda axborot xurujlari avj olayotgan bir paytda ushbu yo'nalish nazariyasining ahamiyati va dolzarbligi har doimgidan ko'proq namoyon bo'layotganini ilmiy asoslagan.

Dissertant jinoyatchilik sabablarini tushuntirishga yo'naltirilgan psixologik yo'nalish nazariyasi psixologik omillar bilan bog'liq bo'lganligi sababli ijtimoiy-psixologik yo'nalish nazariyasiga o'xshash va yaqin bo'lsa-da, ammo sabablarning kelib chiqish manbai va ta'sir ko'rsatish hajmi bilan ajralib turishini ta'kidlaydi. U "ijtimoiy" va "ijtimoiy-psixologik" yo'nalish nazariyalari bo'yicha ilgari suriladigan ilmiy xulosalar huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi chora-tadbirlarini ishlab chiqish va manzilli amalga oshirilishini kafolatlasa, "psixologik" yo'nalish nazariyasida ilgari surilgan g'oya va bilimlar huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlarini ishlab chiqish, amalga oshirish va bu borada profilaktik ta'sirchanlikka erishishda juda muhim ahamiyat kasb etishini e'tirof etgan.

Jinoyatchilik sabablarini tushuntirishdagi ijtimoiy-biologik yo'nalish nazariyasida inson tanasidagi biofiziologik o'zgarishlarning ruhiyatga ta'siri va shu ta'sir ostida huquqbuzarliklarni sodir etish mumkinligi bayon etilgan. Ushbu yo'nalish bo'yicha

ilgari surilgan g'oyalari ham ilmiy asoslanganligi va hattoki, qonun hujjatlarida muayyan qoidalarning kiritilishiga asos bo'lib xizmat qilganligi faktik ma'lumotlar bilan isbotlangan.

Paragraf so'ngida o'rganilgan nazariyalar doirasida keltirilgan faktlar, ilmiy xulosa va tavsiyalar jamiyatda huquqbuzarliklar profilaktikasining samarali profilaktik chora-tadbirlarini ishlab chiqish, ularning manzilli va ta'sirchan amalga oshirilishi hamda natijadorligini ta'minlashga xizmat qiladi, deb xulosa qilingan. Va kelgusida quyidagilarning amalga oshirilishini maqsadga muvofiq hisoblagan:

*birinchisi*, jinoyatlarning kelib chiqish sabablarini ilmiy asoslagan hamda kriminologiya fani nazariyasining rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan ijtimoiy, ijtimoiy psixologik, psixologik hamda ijtimoiy-biologik yo'nalish nazariyalarini huquqbuzarliklar profilaktikasi fani nuqtai nazaridan tadqiq etish va huquqbuzarliklar profilaktikasiga mutanosib ilmiy-nazariy asoslarni shakllantirish;

*ikkinchisi*, psixologiya va tibbiyot fanlari doirasida insondagi psixologik va biologik omillarning jinoyat sodir etilishidagi roli bilan bog'liq holatlar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish, bu borada samarali profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirilishiga doir ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni yo'lga qo'yish;

*uchinchisi*, huquqbuzarliklar profilaktikasining nazariy konsepsiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan yangi ilmiy g'oyalarni ilgari surish, ushbu g'oyalarning himoya qilinishi va amaliyotga joriy qilinishini ta'minlash uchun yuridik oliy ta'lim muassasalarida ilmiy maktablar yaratish choralari ko'rish;

*to'rtinchisi*, huquqbuzarliklar profilaktikasining nazariy va amaliy muammolarini tadqiq etishga yo'naltirilgan huquqbuzarliklar profilaktikasining xususiyatlari, o'ziga xosliklari va qonuniyatlarini aniqlash, nazariy va amaliy muammolarini tadqiq etish, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borish uchun davlat buyurtmalarini shakllantirish va ushbu buyurtmalarning bajarilishi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish.

Ikkinchi bobning "*Huquqbuzarliklar profilaktikasini fan va ilm sohasi sifatida rivojlantirish masalalari*" deb nomlangan ikkinchi paragrafida huquqbuzarliklar profilaktikasi nazariy va metodologik asoslarining bugungi holati tanqidiy tahlil qilingan hamda optimallashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

*Tahlil quyidagi mezonlar asosida amalga oshirilgan:*

*birinchi mezon*, huquqbuzarliklar profilaktikasi fanining viktimologiya va kriminologiya fanlari predmetlari bilan o'zaro mutanosibli;

*ikkinchi mezon*, huquqbuzarliklar profilaktikasi fani predmetining predmet kompetensiyasiga mosligi;

*uchinchi mezon*, huquqbuzarliklar profilaktikasi fanida fanlar tizimida tan olingan, to'laqonli shakllanib, o'zining mustaqil pozitsiyasiga ega bo'lgan fanlarga xos elementlarning mavjudligi;

*to'rtinchi mezon*, huquqbuzarliklar profilaktikasi fani va amaliyotining o'zaro uyg'unligi.

*Natijada quyidagi zaruratlar mavjudligi ilmiy asoslangan:*

*birinchidan*, kriminologiya fani predmetidagi "jinoyatlarning oldini olish" hamda viktimologiya fani predmetidagi "jinoyatlarning viktimologik oldini olish" dan huquqbuzarliklar profilaktikasi fani predmeti o'rtasidagi o'zaro farqqa oydinlik kiritish;

*ikkinchidan*, jinoyatdan jabrlanuvchilarni mustaqil fan sifatida o'rganuvchi viktimologiyani "Kriminal viktimologiya" deb nomlash va kriminologiya fani predmeti doirasidan "jinoyatdan jabrlanuvchi"ni chiqarib tashlash;

*uchinchidan*, davlat ta'lim standartlari asosida o'qitiladigan mutaxassisliklar uchun malaka talablari, namunaviy o'quv rejalari va fan dasturlarni ishlab chiqishda tayanch, umumpredmet va predmetga oid kompetensiyalarni inobatga olish va shu asosda huquqbuzarliklar profilaktikasining nazariy asoslarini shakllantirish;

*to'rtinchidan*, huquqbuzarliklar profilaktikasining nazariy asoslarini optimallashtirishga yo'naltirilgan fundamental tadqiqotlar o'tkazilishini ta'minlash;

*beshinchidan*, huquqbuzarliklar profilaktikasi fani funksiyalarini "tadqiq etish, yaratish, jamlash, tushuntirish, baholash, tajriba o'tkazish" kabilardan iborat taxminiy tizimini shakllantirish;

*oltinchidan*, huquqbuzarliklar profilaktikasi fani tizimini umumiy va maxsus qism (bo'lim)ga ajratish, birinchi qism (bo'lim)ni "Umumiy qoidalar"ga, ikkinchi bo'limni "Profilaktik taktika"ga bag'ishlash, fanning "Profilaktik taktika" qism (bo'limi)da muayyan mavzularni o'z ichiga qamrab olgan boblarni yaratish;

*yettinchidan*, huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish masalasiga konseptual yondashish, huquqbuzarliklar profilaktikasining ilmiy, nazariy, huquqiy va amaliy jihatlarini o'zaro aloqadorlikda, kompleks tadqiq etish, takomillashtirish.

Shuningdek, "huquqbuzarliklar profilaktikasi fani", "huquqbuzarliklar profilaktikasi fani obyekti", "huquqbuzarliklar profilaktikasi fani predmeti", "huquqbuzarliklar profilaktikasi fanining maqsadi", "huquqbuzarliklar profilaktikasi fani vazifasi" va "huquqbuzarliklar profilaktikasi fani metodi" tushunchalariga nisbatan zamonaviy yondashuvdagi mualliflik ta'riflari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid ilg'or xorijiy tajriba**" deb nomlangan bo'lib, unda ayrim rivojlangan demokratik davlatlarning huquqbuzarliklar profilaktikasi amaliyoti hamda MDHga a'zo ayrim davlatlarning huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir qonunlari qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi "*Ayrim xorijiy davlatlarning huquqbuzarliklar profilaktikasi amaliyotiga oid ilg'or tajribalari tahlili*"ga bag'ishlangan bo'lib, unda Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada, GFR, Avstraliya, Estoniya, Yaponiya, Daniya, Litva, Ruminiya, Chexiya, Polsha, Rossiya Federatsiyasi, Buyuk Britaniya, Fransiya, Shvetsiya, Gollandiya, Belgiya, Irlandiya, Shveysariya, Avstriya davlatlari huquqbuzarliklar profilaktikasi amaliyoti o'rganilgan va ulardagi ilg'or tajribalarni milliy tizimga tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Jumladan, dissertant tomonidan quyidagi tajribalarni joriy etish zarurati ilmiy jihatdan isbotlangan:

Buyuk Britaniya, Litva va Estoniya politsiya tizimidagi xavfsizlik masalalari bo'yicha profilaktik dasturlarni ishlab chiqishda jamoatchilik fikrini o'rganish tajribasiga asoslanib, mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha dasturlarni shakllantirish va unda profilaktik chora-tadbirlarni belgilashda jamoatchilik fikrini o'rganish amaliyotini tizimli yo'lga qo'yish;

huquqbuzarliklar profilaktikasini jamiyatda ijtimoiy qadriyat sifatida tan olinishini ta'minlash, jinoyatchilarni qayta tarbiyalash bo'yicha AQSh va Yaponiya tajribasidan andoza olgan holda mamlakatimizda jinoyatchilarni qayta tarbiyalashda davlat va jamiyatning rolini aniq belgilash;

mamlakatimizda huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan, shu jumladan, ilgari sudlangan va ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan

shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirishda AQShning maxsus dasturlari va reintegratsiya amaliyotlaridan foydalanishga oid tajribasini joriy etish;

davlatning ijtimoiy siyosatida jamiyatning deviant xulq-atvorli o'spirinlarni qayta tarbiyalashga, ularni jamiyatning sog'lom hayotiga qo'shishga yo'naltirilgan qayta ijtimoiylashuv choralari va shakllari bo'yicha Buyuk Britaniyaning tajribasini ham jiddiy o'rganish hamda mamlakatimiz huquqbuzarliklar profilaktikasi amaliyotiga tatbiq etish;

Avstriya, Belgiya, Irlandiya, Italiya, Shveysariya, Daniya, Fransiya, Gollandiya, Shvetsiya va GFR kabi davlatlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi amaliyotida kuzatiladigan arxitektura yo'nalishiga oid tajribaga asoslanib hamda ko'pincha katta shaharlarning me'moriy uslubi ham jinoyatlarni keltirib chiqarishi va ularning sodir etilishini osonlashtirishini inobatga olib, bu boradagi yondashuvlarni shaharsozlik amaliyotida hisobga olish;

AQSh va G'arbiy Yevropa politsiya organlarining shaxs, oila, uy va mulkni jinoiy tajovuzlardan himoya qilish mavzularida ko'plab mashhur qo'llanmalar tayyorlanib, hududlarga ommaviy ravishda tarqatishga oid tajribasiga asoslangan holda mamlakatimizda shu kabi qo'llanmalarni ichki ishlar organlari tomonidan fuqarolar uchun tushunarli, oddiy va sodda ko'rinishlarda tayyorlash va tarqatish amaliyotini joriy etish;

AQShda jinoyatlarning oldini olishda noan'anaviy usullardan gipnoz va meditatsiyani (gipnoz va antikriminogen meditatsiya guruh seanslari) qo'llanilishiga urinishlar bo'layotganligini alohida e'tirof etib, ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish.

O'rganilgan davlatlar tajribalaridan umumiy xulosa qilib, quyidagilarning ham amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb topilgan:

davlatning jinoyatchilikka qarshi kurashish siyosati va undan ko'zlangan maqsad, fuqaroning huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashdagi ishtiroki, bu boradagi rag'batlantirish mexanizmlari, huquqbuzarlik uchun jazoning muqarrarliligi kabi masalalar bo'yicha voyaga yetmagan va yoshlarning bilim va ko'nikmalarini tizimli oshirib borilishini ta'minlash maqsadida ta'lim tizimining barcha bo'g'inida fakultativ mashg'ulotlarni yo'lga qo'yish;

o'quvchilarning xohishiga qarab ta'lim muassasalarida jinoiy tajovuzlar bo'lganda o'zini o'zi himoya qilish usullarini amalda qo'llash, ekstremal vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish va harakatlanishga o'rgatuvchi maxsus tayyorgarlik kurslarini tashkil etish;

jinoiy tajovuzlar bo'lganda o'zini o'zi himoya qilish uchun qo'llash mumkin shaxsiy himoya vositalari (ko'zdan yosh oqizuvchi gazli ballonchalar, mexanik purkagichlar, aerezolli qurilmalar va boshqa qurilmalar, elektroshoker va boshqalar)ni ijtimoiy muomalaga kiritish va huquqiy tartibini belgilash (*Ushbu takliflar so'rovga jalb etilganlarning 82 foizi tomonidan ma'qullangan*).

Bu borada voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning 2019-yil (818 ta)ga nisbatan 2020-yilda 35,9% (1276 ta)ga, 2021-yilda 68,5% (2595 ta)ga, 2022-yilda 73,7% (3112 ta)ga ko'payganligi yoki 2022-yil davomida respublikada voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jami 2404 ta jinoyatning 10 tasi (0,4%) qasddan odam o'ldirish, 74 tasi (3,1%) qasddan badanga og'ir shikast yetkazish, 42 tasi (1,7%) nomusga tegish, 1162 tasi (48,3%) o'g'irlik, 78 tasi (3,2%) talonchilik, 21 tasi (0,9%) bosqinchilik, 137 tasi (5,7%) firibgarlik,

171 tasi (7,1%) bezorilik va 29 tasi (1,2%) transport vositasini olib qochish jinoyati ekanligi yuqoridagi xulosalarni asoslashga xizmat qiladi<sup>11</sup>.

Tadqiqotchi mazkur takliflarning amalda joriy etilishi, *birinchidan*, ko'p kuzatilayotgan jinoiy tajovuzlar haqida, shuningdek bu kabi tajovuzlar amalga oshirilganda o'zini o'zi himoya qilishi mumkin bo'lgan usul va vositalar to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladigan aholi qatlamining kengayishiga; *ikkinchidan*, voyaga yetmagan va yoshlarning huquqiy ong va dunyoqarashining rivojlanishiga; *uchinchidan*, voyaga yetmagan va yoshlarning tizimli ravishda huquqiy ijtimoiylashuvining ta'minlanishiga; *to'rtinchidan*, jinoiy tajovuzlar bo'lganda o'zini o'zi himoya qilish uchun qo'llash mumkin bo'lgan shaxsiy himoya vositalarining ishlab chiqilishi, tarqatilishi va ulardan foydalanish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarning huquqiy tartibga solinishiga xizmat qiladi, deb hisoblaydi.

Mazkur bobning "*MDHga a'zo ayrim davlatlar qonunchiligida huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy tartibga solinishi: qiyosiy-huquqiy tahlil*" deb nomlangan ikkinchi paragrafida MDHga a'zo quyidagi davlatlardan Rossiya Federatsiyasi, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va O'zbekiston Respublikalarining huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid qonunlari tahlil qilingan.

*Tahlil quyidagi mezonlar asosida amalga oshirilgan va qonunlardagi yutuq va kamchiliklarga obyektiv baho berilgan:*

*birinchi mezon*, qonunda huquqiy jihatdan tartibga solish predmeti mazmunining qay darajada belgilanganligi;

*ikkinchi mezon*, qonunning maqsad va vazifalari belgilanganligi;

*uchinchi mezon*, qonunda qo'llanilgan asosiy tushunchalar mazmunining qay darajada yoritilgani;

*to'rtinchi mezon*, huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlarining faoliyatini to'g'ri yo'naltiruvchi va samarali tashkil etilishiga xizmat qiluvchi prinsiplarning belgilanganligi va ular mazmunining qay darajada yoritilgani;

*beshinchi mezon*, huquqbuzarliklar profilaktikasining yo'nalishi, turi, usul va shakllarining qonun normalari bilan belgilanganligi;

*oltinchi mezon*, huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari optimal tizimining shakllantirilganligi;

*yettinchi mezon*, huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari faoliyatini tashkil etish asoslarining belgilanganligi.

*Natijada quyidagi zarurlarning mavjudligi ilmiy asoslangan:*

1) O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-371-son Qonunining **1-moddasi** (Ushbu Qonunning predmeti) va **4-moddasi** (Qonunning maqsad va vazifalari)ni yangi tahrirda qabul qilish hamda **3-moddasi** (Asosiy tushunchalar)ga yangi xatboshini kiritish va unda "*huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari*" tushunchasiga tavsif berish;

2) huquqbuzarliklar profilaktikasini yo'nalishlar, yo'nalishlarni turlar, turlarni esa chora-tadbirlar tizimi orqali ifodalash;

3) Rossiya Federatsiyasi, Belarus va Turkmaniston Respublikasining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirishga oid tajribalariga asoslanib, bu borada muvofiqlashtirish masalasini prokuratura organlari zimmasiga yuklash va ularning mazkur yo'nalishdagi vazifalarini aniq belgilash;

---

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi IIVning 2022-yil 12 oyida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi ma'lumoti.

4) milliy qonunchiligimizdagi huquqbuzarliklar profilaktikasi prinsiplar tizimini tahlil qilingan davlatlar qonunchiligida keltirilgan prinsiplar asosida ko‘rib chiqish va qayta shakllantirish.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **“Huquqbuzarliklar profilaktikasi amaliyotini takomillashtirish yo‘nalishlari”** deb nomlangan bo‘lib, unda mamlakatimizda huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash va bartaraf etishning nazariy, amaliy va huquqiy jihatlari tahlil qilingan.

Tahlil natijasida quyidagi muammolarning mavjudligi aniqlangan va ilmiy asoslantirilgan:

*birinchisi*, huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid qonunchilik hujjatlarida “huquqbuzarliklarning sabablari” hamda “huquqbuzarliklarning sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlar” tushunchalariga ta‘rif berish bilan bog‘liq bo‘shliqning mavjudligi;

*ikkinchisi*, huquqbuzarliklarga oid ishlarni yuritish jarayonida asosiy e‘tibor isbotlash va javobgarlik masalalariga qaratilib, natijada huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlashning e‘tibordan chetda qolib kelayotganligi;

*uchinchisi*, huquqbuzarliklarga oid ishlarni yuritish jarayonida obyektiv va subyektiv omillarga ko‘ra huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlarini aniqlash imkoniyati chegaralanganligi bois, aksariyat hollarda sabab va shart-sharoitlar sifatida asosan mahalla faollari tomonidan targ‘ibot va tushuntirish ishlari olib borilmaganligi kabilar ko‘rsatilib, kiritilayotgan taqdimnomalarning “shablon”, ya‘ni bir xil mazmunga ega bo‘lib qolayotganligi;

*to‘rtinchisi*, ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish bilan bog‘liq deyarli barcha holatlarda huquqbuzarlikning sodir etilishi sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlar aniqlanmayotganligi va taqdimnoma kiritilmayotganligi;

*beshinchisi*, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan taqdimnoma kiritish deganda, asosan ma‘muriy huquqbuzarliklarni ko‘rib chiqish va jinoyat ishlarini yuritish jarayonida aniqlangan huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan taqdimnoma (xususiy ajrim)lar kiritish tushunilayotganligi;

*oltinchisi*, Jinoyat-protsessual kodeksi normalarida jinoyat protsessida amalga oshiriladigan protsessual harakatlar jinoyatlarning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlarini o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishga manzilli yo‘naltirilmaganligi, bu borada isbotlash predmeti va uning doirasi aniqlashtirilmaganligi;

*yettinchisi*, huquqbuzarlik holatlari bo‘yicha ularning sabablari va sodir etilishiga imkon beruvchi shart-sharoitlarni aniqlash va hisobini yuritish mezonlarining kriminologiya fani yutuqlariga tayanib shakllantirilmaganligi;

*sakkizinchisi*, huquqbuzarliklarning sabablari va sodir etilishiga imkon beruvchi shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning tizimli va ta‘sirchan qonunchilik mexanizmining mavjud emasligi;

*to‘qqizinchisi*, profilaktika subyektlarida huquqbuzarlikning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar nima maqsadlarda aniqlanishi hamda buning uchun nimalarga e‘tibor qaratilishi lozimligiga oid bilim va ko‘nikmalarining yetarlicha shakllanmaganligi.

Bu borada amaliyotda aksariyat holatlarda sabab va shart-sharoitlar jinoyatni fosh etish hamda qilmishni kvalifikatsiya qilish maqsadida aniqlanib, jinoyatlar profilaktikasi, aniqrog‘i, jinoyatlarning sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etishga panja ortidan qaralayotganligi amaliy misollar hamda olimlarning ilmiy yondashuvlari bilan asoslantirilgan.

Shuningdek, jinoyat-protsessual qonunchiligining “jinoyatlarning oldini olish” vazifasi ijrosini ta‘minlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi-ning oltinchi bo‘limida “jinoyatlarning oldini olish choralari” huquqiy tartibga solingan bo‘lsa-da, ammo jinoyat protsessida amalga oshiriladigan protsessual harakatlar jinoyatlarning sabab va shart-sharoitlarini o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishga manzilli yo‘naltirilmagan, chunki isbotlash predmeti va uning doirasi aniqlashtirilmagan, deb xulosaga kelingan.

Mazkur vaziyat *birinchidan*, jinoyat protsessida jinoyatlarning sabab va shart-sharoitlarini o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etilishiga; *ikkinchidan*, jinoyat-protsessual qonun hujjatlari vazifalarining to‘liq bajarilishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotganligi ilmiy asoslangan.

Mazkur muammo bo‘yicha Armaniston, Belarus, Turkmaniston, Ukraina, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Moldova, Tojikiston, Estoniya Respublikalari va Rossiya Federatsiyasining Jinoyat-protsessual kodeksi normalari tahlil qilinib, tahlil natijasiga asosan mavjud muammoni bartaraf etish uchun Jinoyat protsessida isbotlash predmetiga oydinlik kiritish va O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 82-moddasini yangi tahrirda bayon etish taklifi ilgari surilgan (*ushbu taklif so‘rovga jalb etilganlarning 68 foizi tomonidan ma‘qullangan*).

Dissertant, ushbu taklifning joriy etilishi va amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksida isbotlash predmetiga oid mavhumlikning bartaraf etilishi *birinchidan*, Jinoyat-protsessual kodeksining isbot qilish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi normalari o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishga; *ikkinchidan*, protsessual harakatlarning nafaqat aybdorlikni isbotlash, balki jinoyatlarning sabab va shart-sharoitlarini, shuningdek jinoyatdan jabrlanish ehtimoli (viktimlik)ni shakllantiruvchi omillar va jabrlanishning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash imkoniyatini ta‘minlashga; *uchinchidan*, shu orqali jabrlanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyalashga; *to‘rtinchidan*, tergovga qadar tekshiruv bosqichining protsessual ahamiyati, maqsadi va vazifalarining oydinlashtirilishiga xizmat qiladi, deb xulosa qilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Oliy sudi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Davlat bojxona qo‘mitasining 2018-yil 30-dekabrdagi QK-83, 08/UM-706-18, 1, 84, 01-02/22-77-son qarori bilan “Elektron jinoiy-huquqiy statistika yagona axborot tizimini yuritish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” bilan tasdiqlangan “Shakl 1”, “Shakl 2” va “Shakl 3” elektron statistik kartochkalarni kriminologiya fani bilimlariga tayanib, qaytadan yangi shaklini ishlab chiqish zarurligi asoslangan.

Muallif O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalarini tahlil qilib, unda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning konstitutsiyaviy asosi belgilanmaganligini tanqid qilib, Konstitutsiyada fuqarolarning huquqbuzarliklar profilaktikasidagi ishtiroki va majburiyatlarini ham ifodalash hamda 152-moddasini yangi tahrirda bayon etishga ehtiyoj mavjudligini asoslagan (*ushbu taklif so‘rovga jalb etilganlarning 75 foizi tomonidan ma‘qullangan*).

Ushbu taklif *birinchidan*, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning konstitutsiyaviy asosini shakllantirish va mustahkamlashga; *ikkinchidan*, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish davlat siyosatining doimiy ustuvor va muhim yoʻnalishlaridan biri ekanligini anglashga; *uchinchidan*, mudofaa va ichki xavfsizlikning bir-biri bilan aloqador, ammo boshqa-boshqa tarkibiy qismlarga egaligini oydinlashtirishga; *toʻrtinchidan*, fuqarolarning huquqbuzarliklar profilaktikasida ishtiroki bilan bogʻliq qonun hujjatlaridagi mavhumlik va boʻshliqlarni bartaraf etishga; *beshinchidan*, fuqarolarning huquqbuzarliklar profilaktikasida ishtirokini aniq belgilanishiga; *oltinchidan*, mamlakatimizning jinoyatchilikka qarshi kurashish siyosatida huquqbuzarliklar profilaktikasiga nisbatan siyosiy pozitsiyasini yanada mustahkamlashga; *yettinchidan*, huquqbuzarliklar profilaktikasida fuqarolar ishtirokining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ilmiy asoslangan.

Shuningdek, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi toʻgʻrisida”gi OʻRQ-371-son qonunning 21-moddasida fuqarolarning huquqbuzarliklar profilaktikasidagi ishtirokini huquqiy tartibga solish boʻyicha takliflar ishlab chiqilgan.

“*Huquqbuzarliklar profilaktikasiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish istiqbollari*” deb nomlangan ikkinchi paragrafda, fan va texnologiyaning ilgʻor yutuqlari, zamonaviy axborot, telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanish huquqbuzarliklar profilaktikasida muhim rol oʻynashi hamda bundan keyin ham uning dolzarbligi oshib boraverishi ilmiy asoslangan.

Huquqbuzarliklar profilaktikasida kuzatuv kameralaridan foydalanish profilaktikaning nazorat shakllaridan biri (texnik nazorat) sifatida tan olingan boʻlsa-da, biroq ushbu shakl imkoniyatidan yetarlicha foydalanilmasdan kelinayotganligi hamda ushbu yoʻnalishdagi faoliyat tashkiliy-huquqiy jihatdan tizimli yoʻlga qoʻyilmaganligi isbotlangan. Va mavjud muammolarni bartaraf etish boʻyicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tizimda olib borilayotgan raqamlashtirish siyosati butunlay yangi davr eshiklari ochib berilayotganligi alohida eʼtirof etilib, islohotlarning izchil davomi kelgusida yana qanday chora-tadbirlarning amalga oshirish zaruratini keltirib chiqarayotganligi oydinlashtirilgan.

Pedagogik faoliyatda boshlangʻich, oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim muassasalari oʻquvchilarini psixodiagnostik tekshiruvdan oʻtkazish, oʻquv ishlari, korreksion-rivojlantirish va maslahat-profilaktika ishlari, shuningdek, kasbga yoʻnaltirish va kasbga tayyorlash ishlarini psixologik qoʻllab-quvvatlashda ham foydalaniladigan “Multipsixometr” psixodiagnostik apparat-dasturiy majmuasi imkoniyatlari oʻrganilib, uni huquqbuzarliklar profilaktikasida qoʻllash zarurati, oʻrni va ahamiyati aniqlashtirilgan.

Maʼlum boʻlishicha, psixodiagnostika kompleks dasturlari subyektlardagi ruhiy ogʻishlarni, tushkunliklarni, jamoadagi nizolarni aniqlaydi va ularning psixologik barqarorligini baholaydi. Bu kabi ruhiy kechinmalar esa huquqbuzarlik sodir etishni taqozo etuvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Shu boisdan, muallif apparat-dasturiy majmuadan huquqbuzarlik sodir etishga moyil har qanday shaxslarning ruhiy holatini aniqlash, huquqbuzarlik sodir etib, profilaktik hisobda turgan, maʼmuriy nazoratga olingan yoki jazoni oʻtayotgan shaxslarning axloqan tuzalgan yoki tuzilmaganligiga oydinlik kiritish hamda ularga nisbatan taʼsirchan profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish kabi maqsadlarda foydalanishni tavsiya etgan (*ushbu tavsiya soʻrovga jalb etilganlarning 76,9 foizi tomonidan maʼqullangan*). Shuningdek, ushbu psixodiagnostika kompleks dasturda

foydalaniladigan shaxsning ruhiy holatlarini aniqlash mezonlari ishlab chiqilgan va dissertatsiyaga ilova qilingan.

Mazkur bobning uchinchi paragrafi *“Huquqbuzarliklar profilaktikasini strategik va taktik ta’minlash zarurati”* deb nomlangan bo‘lib, unda huquqbuzarliklar profilaktikasini rejalashtirish, belgilangan vazifalarni puxta, o‘z vaqtida va samarali bajarilishida hamda tashkiliy asoslarini takomillashtirishda huquqbuzarliklar profilaktikasini strategik va taktik ta’minlash zarurati ilmiy isbotlangan. Bu borada dunyo miqyosida huquqbuzarliklar profilaktikasiga strategik jihatdan yondashayotgan davlatlarda jinoyatchilik ko‘rsatkichining sezilarli darajada kamayishiga erishilayotganligi alohida e’tirof etilib, samaradorlik sifatida BMTning 2019-yildagi statistik ma’lumotlariga qaraganda, 100 foiz ko‘rsatkichda Qatar (86,7), Yaponiya (86,3), BAA (83,6), Tayvan (82,6), Gonkong (80,6), Gruziya (80,1) davlatlarida 80 foizdan ortiq darajada xavfsizlik ta’minlangan<sup>12</sup>lik misol qilib keltirilgan. Shunga asosan huquqbuzarliklar profilaktikasiga nisbatan strategik yondashish zarurligiga oid xulosa asoslantirilgan (*ushbu xulosa so‘rovga jalb etilganlarning 73 foizi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan*).

T. Alimardonov, Ch. Valeriy, V.L.Kvint, Djon Kollinz, A.G. Golovkina kabilarining milliy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa mazmundagi strategiyaga oid qarashlari tahlil qilinib, *“huquqbuzarliklar profilaktikasi strategiyasi”* tushunchasiga nisbatan quyidagi mazmundagi mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan:

*“huquqbuzarliklar profilaktikasi strategiyasi – bu, davlatning huquqbuzarliklarga qarshi kurashish va profilaktikasiga doir davlat siyosatini to‘g‘ri shakllantirishi, aniq taktik vazifalarni belgilab olishi va huquqbuzarliklar profilaktikasini istiqbolli rejalashtirishiga doir chora-tadbirlar tizimi” (ushbu ta’rif so‘rovga jalb etilgan 75 % respondentlar tomonidan ma’qullangan).*

Shu bilan birga, “profilaktik taktika” tushunchasining mazmun mohiyati ochib berilgan, profilaktik taktikaning maqsadi, vazifalari, obyekti, subyekti va boshqa tarkibiy qismlariga oydinlik kiritilgan.

D.V. Shablinskaya, Y.O. Alauxanov, Z.S. Zaripovlarning ilmiy qarashlari hamda kriminalistik va tergov taktikalariga oid yondashuvlar ilmiy tahlil qilinib, huquqbuzarliklar profilaktikasining “profilaktik taktikasi” bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirilgan, uning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan va quyidagicha mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan:

*“profilaktik taktika – bu, kam kuch, vosita va vaqt sarflab yuqori samaraga erishish maqsadida huquq-tartibotni saqlash, mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, shaxslarga profilaktik ta’sir ko‘rsatish hamda profilaktik faoliyatni muvofiqlashtirishda qo‘llaniladigan huquqbuzarliklar profilaktikasining umum-nazariy qoidalari, mantiq, psixologiya, pedagogika va boshqa fanlarning ilmiy bilimlaridan foydalanishga asoslangan huquqbuzarliklar profilaktikasining taktik usullari va metodlarini rejalashtirish majmuidir” (ushbu ta’rif so‘rovga jalb etilgan 72 % respondentlar tomonidan ma’qullangan).*

Dissertantning ta’kidlashicha, yuqorida ilgari surilgan taklif va tavsiyalar *birinchidan*, “huquqbuzarliklar profilaktikasi strategiyasi” va “profilaktik taktika” tushunchasining mazmun va mohiyatini ochib berishga; *ikkinchidan*, huquqbuzarliklar profilaktikasi nazariyasi va amaliyotiga ushbu tushunchalarning tatbiq etilishiga;

---

<sup>12</sup> <https://basetop.ru/top-10-stran-s-samyim-nizkim-urovnem-prestupnosti>.

*uchinchidan*, huquqbuzarliklar profilaktikasi taktikasining nazariy va amaliy jihatlarini shakllantirishga; *to'rtinchidan*, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi" fanini "Umumiy qoidalar" va "Profilaktik taktika"ga bag'ishlangan ikkita bo'limga ajratilishiga; *beshinchidan*, huquqbuzarliklar profilaktikasi strategiyasi va taktikasining ilmiy tadqiqot predmetiga aylanishi va ushbu masalada ilmiy tadqiqot yo'nalishlarining belgilab olinishiga o'z hissasini qo'shadi.

To'rtinchi bobning "*Huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir qonun hujjatlarini tizimlashtirish va kodifikatsiyalash zarurati*" deb nomlangan to'rtinchi paragrafida qonunchilikni tizimlashtirishning unifikatsiya, inkorporatsiya, konsolidatsiya va kodifikatsiya kabi shakllari nazariy tahlil qilingan.

Dissertant mamlakatimizda o'tgan davr mobaynida huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid qonunchilikning bosqichma-bosqich rivojlanishi, bu borada normativ hujjatlarning qabul qilinishi huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida olib borilgan islohotlarning turli davrlariga to'g'ri kelishi, ayrimlaridagi ba'zi normalar mazmunan eskirgani va ba'zilarining o'zaro nomuvofiqligi, aksariyat normalar takrorlanish xususiyatiga egaligi, ayrimlarida huquqiy bo'shliqlarning kuzatilishi ushbu qonun normalarini qo'llash va ulardan foydalanishda muammo va kamchiliklarni yuzaga keltirayotganligini ta'kidlab, ushbu vaziyatda huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir normativ hujjatlarni kodifikatsiyalash zarurati yuzaga kelgan, deb xulosaga kelgan. Va o'z xulosasini quyidagi omillarning tahlili asosida asoslantirgan:

**birinchisi**, huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir turli qonun hujjatlarida belgilangan tartib-qoidalarni o'zaro muvofiqlashtirish talabining mavjudligi;

**ikkinchisi**, huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir muayyan masalalarni turli qonun hujjatlari bilan tartibga solinishiga chek qo'yib, ularning yagona normativ hujjatga birlashishini ta'minlash lozimligi;

**uchinchisi**, huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir ba'zi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan ayrim tartib-qoidalarning amaliyotga to'liq tatbiq etilmayotganligi;

**to'rtinchisi**, huquqbuzarliklar profilaktikasini muvofiqlashtirish masalalarining turli normativ hujjatlar bilan tartibga solinganligi va ulardagi mavjud tartib-qoidalarning takrorlanganligi.

**beshinchisi**, idoralararo komissiyalar vakolatlarida takrorlanishlar (tavnologiya)ning kuzatilishi;

**oltinchisi**, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunda ayrim huquqiy bo'shliqlarning borligi;

**yettinchisi**, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonun normalari o'rtasida o'zaro ziddiyatlarning uchrayotganligi.

Tadqiqotchining fikricha, huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish, shu jumladan, kodifikatsiyalash - sohaga doir normativ hujjatlarning *birinchidan*, o'zaro aloqadorligi va bir butunligini ta'minlash; *ikkinchidan*, huquqiy normalari o'rtasidagi mavjud ziddiyat, bo'shliq va nomuvofiqliklarni aniqlash hamda bartaraf etish; *uchinchidan*, amaliy qo'llanish samaradorligini oshirish; *to'rtinchidan*, ayrim mazmunan eskirgan tartib-qoidalarni aniqlash va ulardan voz kechish; *beshinchidan*, mustaqil faoliyat yo'nalishi sifatida muayyan maqsadni ko'zlab, tizimli, ko'p bosqichli, mantiqiy va uzviy ketma-ketlikda amalga oshiriladigan huquqbuzarliklar profilaktikasini tartibga soluvchi yagona huquqiy asosni yaratishga xizmat qiladi.

## XULOSA

Huquqbuzarliklar profilaktikasining genezisi, nazariyasi va amaliyotini tadqiq etish natijasida quyidagi ilmiy xulosa, taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan:

### I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Huquqbuzarliklar profilaktikasi genezisini o'rganish asosida ishlab chiqilgan quyidagi xulosalar asoslantirilgan:

a) huquqbuzarliklar profilaktikasida diniy ta'limotlar, xususan islom diniga oid fiqhshunos olimlarning asarlaridagi qarashlar alohida o'rin tutadi. Shu bois, huquqbuzarliklar profilaktikasida dinning ta'sirchanligini inobatga olish zarur. Zero, huquqbuzarliklar profilaktikasining bir asosi dinga, yana biri ta'lim-tarbiyaga borib taqaladi. Huquqbuzarliklar profilaktikasida ushbu asoslarning ta'sirchanligi hech qachon yo'qolmaydi;

b) huquqbuzarliklar profilaktikasida dinning ta'sirchanligini chuqur ilmiy tadqiq etish va mohiyatini ochib berish, shuningdek dinning ta'sirchanligidan foydalanish samaradorligini ta'minlash maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasida "teologik nazariya"ga asos solish zarur;

d) qadimgi ajdodlarimiz ta'limotlarida hozirgacha o'zining qadr-qiyamatini saqlab kelayotgan huquqbuzarliklar profilaktikasi mohiyatiga ega qarashlar ilgari surilgan. Ushbu ta'limotlarda asosan, huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlari, huquqbuzar shaxs muammosi va huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir muhim masalalar o'z ifodasini topgan. Ular orasida axloq, ilm, insoniy fazilatlar, illatlar, komillik, fozillik haqidagi qarashlar alohida ajralib turadi;

e) afsuski, hanuzgacha qadimgi davr mutafakkir, faylasuf, olim va davlat arboblarning huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir fikr va g'oyalari to'liq o'rganilmagan. Bu sohada hali bizga ma'lum bo'lmagan, lekin biz bilishimiz lozim hisoblangan katta xazina yashiringan. Shu bois, kelgusida qadimgi ajdodlarimiz, xususan fiqhshunos olimlarning ta'limotlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi nuqtai nazardan ilmiy tadqiq etishga yo'naltirilgan fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish talab etiladi.

2. "Huquqbuzarliklarning oldini olish", "huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish", "huquqbuzarliklarga qarshi kurashish", "huquqbuzarliklar profilaktikasi fani", "huquqbuzarliklar profilaktikasi fanining obykti", "huquqbuzarliklar profilaktikasi fanining predmeti", "huquqbuzarliklar profilaktikasi fanining maqsadi", "huquqbuzarliklar profilaktikasi fanining vazifasi", "huquqbuzarliklar profilaktikasi fanining metodi", "huquqbuzarliklar profilaktikasi strategiyasi", "profilaktik taktika" tushunchalariga nisbatan mualliflik ta'riflari shakllantirilgan hamda ularni milliy qonunchilikka kiritish zarurati asoslantirilgan.

3. "Jamoat xavfsizligi" – bu ijtimoiy-huquqiy tushuncha, biroq u "faoliyat" emas, balki "himoyalanganlik holati" ekanligi isbotlangan.

4. Huquqbuzarliklar profilaktikasining tuzilishi (strukturasi) – bu, uning nima uchun mavjudligini, tizim esa – uning qanday harakatga kelishini tushuntirib berishi aniqlangan.

5. Bugungi kunda "huquqbuzarliklar profilaktikasi" – *faoliyat, qonunchilik, fan, ilm sohalari va ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik)* sifatida shakllangani, shuningdek kelgusida "huquq sohasi" sifatida ham shakllantirish zarurligi haqida xulosa qilingan.

6. Davlat ta'lim standartlari asosida o'qitiladigan mutaxassisliklar uchun malaka talablari, namunaviy o'quv rejalari va fan dasturlarni ishlab chiqishda tayanch, umum-predmet va predmetga oid kompetensiyalarni inobatga olish va shu asosda huquqbuzarliklar profilaktikasining nazariy asoslarini shakllantirish zarurligi isbotlangan.

7. "Multipsixometr" apparat-dasturiy psixodiagnostika majmuasidan huquqbuzarliklar profilaktikasida foydalanish bo'yicha shaxsning ruhiy holatlarini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb topilgan.

8. Huquqbuzarliklar profilaktikasi fani funksiyalarining tadqiq etish, yaratish, jamlash, tushuntirish, baholash, tajriba o'tkazish kabilardan iborat taxminiy tizimini shakllantirish lozimligi haqida xulosa qilingan.

9. Huquqbuzarliklar profilaktikasi fani tizimini umumiy va maxsus qism (bo'lim)ga ajratish, birinchi qism (bo'lim)ni "Umumiy qoidalar"ga, ikkinchi bo'limni "Profilaktik taktika"ga bag'ishlash, fanning "Profilaktik taktika" qism (bo'limi)da muayyan mavzularni o'z ichiga qamrab olgan boblarni yaratish tavsiya etilgan.

10. Kelgusida huquqbuzarliklar profilaktikasi fani rivojlanishi uchun quyidagilarni amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan:

1) jinoyatlarning kelib chiqish sabablarini ilmiy asoslagan hamda kriminologiya fani nazariyasining rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan ijtimoiy, ijtimoiy psixologik, psixologik hamda ijtimoiy-biologik yo'nalish nazariyalarining huquqbuzarliklar profilaktikasi fani nuqtai nazaridan tadqiq etish va huquqbuzarliklar profilaktikasiga mutanosib ilmiy-nazariy asoslarni shakllantirish;

2) psixologiya va tibbiyot fanlari doirasida insondagi psixologik va biologik omillarning jinoyat sodir etilishidagi roli bilan bog'liq holatlar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish, bu borada samarali profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirilishiga doir ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni yo'lga qo'yish;

3) huquqbuzarliklar profilaktikasining nazariy konsepsiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan yangi ilmiy g'oyalarni ilgari surish, ushbu g'oyalarning himoya qilinishi va amaliyotga joriy qilinishini ta'minlash uchun yuridik oliy ta'lim muassasalarida "ilmiy maktab"lar yaratish choralari ko'rish;

